

IJTIMOYIY NAFAQALAR: TUSHUNCHASI, TURLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Ibragimova Nilufar Bahodir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Mehnat faoliyati” yo’nalishi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy nafaqalar tushunchasining ilmiy-nazariy va yuridik tabiati tahlil qilingan. Ijtimoiy ta’minot huquqi doirasida davlat ijtimoiy sug’urtasi va davlat byudjeti hisobidan to’lanadigan nafaqalarning turlari, ularni tayinlashning huquqiy mexanizmlari O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xorijiy davlatlar tajribasi asosida qiyosiy o’rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy kafolatlarni huquqiy jihatdan takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Ijtimoiy nafaqa, ijtimoiy ta’minot huquqi, Ijtimoiy davlat, “Inson qadri uchun” tamoyili, raqamli ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy xavfsizlik, moddiy yordam.

Аннотация. В данной статье анализируется научно-теоретическая и правовая природа понятия социальных пособий. В рамках права социального обеспечения на основе законодательства Республики Узбекистан и опыта зарубежных стран проводится сравнительное исследование видов пособий, выплачиваемых за счет средств государственного социального страхования и государственного бюджета, а также правовых механизмов их назначения. Кроме того, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по правовому совершенствованию социальных гарантий.

Ключевые слова: Социальное пособие, право социального обеспечения, социальное государство, принцип “во имя чести и достоинства человека”, цифровые социальные услуги, социальная безопасность, материальная помощь.

Abstract. This article analyzes the scientific-theoretical and legal nature of the concept of social benefits. Within the framework of social security law, the types of benefits disbursed from state social insurance and the state budget, along with the legal mechanisms for their allocation, are comparatively examined based on the legislation of the Republic of Uzbekistan and the experience of foreign countries. Furthermore, scientifically grounded proposals and recommendations for the legal improvement of social guarantees have been developed.

Keywords: Social benefit, social security law, welfare state, the principle of “for human dignity”, digital social services, social safety, material assistance.

“Inson qadrini ulug‘lash – davlatimiz hamda jamiyatimiz ko‘magiga muhtoj bo‘lgan har bir fuqaroni kuchli ijtimoiy himoya qilish, ularning hech birini o‘z muammosi bilan yakkama-yakka tashlab qo‘ymaslikdan boshlanadi”.

Sh.M.Mirziyoyev

Zamonaviy huquqshunoslikda davlatning ijtimoiy funksiyasi uning fuqarolar farovonligini ta‘minlash darajasi bilan o‘lchanadi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning “Ijtimoiy davlat” sifatida e‘tirof etilishi, shuningdek, “Inson qadri uchun” tamoyilining ustuvorlik kasb etishi ijtimoiy ta‘minot huquqi sohasida tub islohotlarni talab etmoqda. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy xatarlardan himoya qilishda “ijtimoiy nafaqalar” instituti asosiy o‘rinni egallaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ishsiz yoshlar hamda xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, aholining hayot darajasi hamda sifatini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aholi bandligini ta‘minlash hamda ijtimoiy himoya qilish masalasi muhim strategik yo‘nalish sifatida belgilangan. Zero, Taraqqiyot strategiyasining 100 ta maqsadidan 34 tasi aynan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish bo‘lgan adolatli ijtimoiy siyosatni yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoni 2-bandida keltirilgan “Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olinsin”, deb keltirilgan norma buning yaqqol dalilidir¹. Ushbu yo‘nalish doirasida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish muhim vazifa sifatida belgilangan².

Ijtimoiy himoya, jumladan ijtimoiy ta‘minot huquqi umuminsoniy xarakterga ega institut sifatida xalqaro darajada mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 22-moddasida “Har bir shaxs jamiyat a‘zosi sifatida ijtimoiy ta‘minot huquqiga ega ekanligi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi // 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, <https://parliament.gov.uz/articles/478>

belgilangan”, bundan tashqari, 25-moddasida “Har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki o’ziga bog’liq bo’lmagan sabablarga ko’ra tirikchilik mablag’laridan mahrum bo’lgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta’minlanish huquqiga ega”³ ekanligi mustahkamlangan. Yana bir xalqaro huquqiy hujjat “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risida”gi xalqaro paktning **9-moddasida**, “Ushbu paktga ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning ijtimoiy ta’minotga, shu jumladan ijtimoiy sug’urtaga bo’lgan huquqini tan olishi kerak”⁴ligi qat’iy qoida qilib belgilab qo’yilgan. Shuningdek Xalqaro huquqiy normalar bilan birgalikda Bosh Qomusimiz bo’lgan Konstitutsiyamizning **11-moddasida** O’zbekiston Respublikasini “Ijtimoiy davlat” deb belgilab qo’yilganligi, **46-moddasida** esa “Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo’qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo’qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda **ijtimoiy ta’minot** huquqiga ega. Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo’lishi mumkin emas”ligi ko’rsatib o’tilgani, bundan tashqari, **57-moddada** “Mehnatga layoqatsiz va yolg’iz keksalar, nogironligi bo’lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to’laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko’radi. Davlat nogironligi bo’lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to’laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko’maklashadi, ularga zarur bo’lgan axborotni to’sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi”⁵ deya mustahkamlab qo’yilganligi davlatimiz rahbari tomonidan aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilab o’tilgan o’ta qashshoqlikni tugatish va ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish kabi masalalarga jiddiy e’tibor qaratayotganligining yaqqol misolidir.

Bugungi kunda ijtimoiy himoyaning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bu **ijtimoiy nafaqalardir**. Nafaqalar o’zining miqyosi hamda keng qamrovliligi jihatdan pensiyalardan keyin ikkinchi o’rinda turadi va aholining muayyan bir nochor tabaqalariga aniq yo’naltirilganligi, odatda ehtiyojmandlarga tayinlanishi bilan ajralib turadi. Nafaqalarning yuridik tabiati aynan maqsadli xarakterga ega ekanligi, yo’naltirilganligi, kafolatlanganligi bilan namoyon bo’ladi. Mashhur olim

³ Universal Declaration of Human Rights (1948). Articles 22, 25 // United Nations Official Website.

⁴ International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (1966). Article 9 // OHCHR Official Website

⁵ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

Y.Tursunovning fikriga ko'ra, “Nafaqa bu ijtimoiy ta'minot huquqiga oid kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari, davlat byutjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamdan iborat bo'lib, u pensiyadan farq qiladi va odatda yordamchi xususiyatga ega bo'ladi va fuqaro turmush kechirishining asosiy manbasi hisoblanmaydi”⁶. Boshqa bir huquqshunos olim **D.Ahmedov** fikriga ko'ra, “Nafaqa huquqiy kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari, davlat budjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamdan iborat bo'lib, pensiyalardan farq qiladi va odatda yordamchi xususiyatga ega bo'ladi hamda fuqaro turmush kechirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanmaydi. Pensiyalarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar – pul shaklida berilishi, qaytarib olinmaslik sharti bilan va tekinga berilishi kabilar nafaqalarga ham xosdir”⁷. Ijtimoiy nafaqalar xususida tadqiqot olib borgan yana bir huquqshunos olim **M.Ziyadullayevning** fikriga ko'ra esa, “Nafaqalar - aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida qonunchilikda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha, oilaning moddiy ahvolini qo'llab-quvvatlash va davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga beriladigan oylik pul to'lovidir”⁸. Yuqoridagi olimlarning barchasi nafaqaga to'g'ri, tizimli ta'rif berib o'tishgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq fikrimcha, eng aniq va keng miqyosda to'liq qamrab olingan ta'rifni aynan Ziyadullayev Mahmudjonning fikrlarida ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi olimlar fikridan kelib chiqib xulosa qilib ijtimoiy nafaqaga quyidagicha ta'rif beradigan bo'lsak, “Nafaqa bu ijtimoiy himoya institutining eng oliy va adolatli tizimi bo'lib, bu shaxs hayotida qonun bilan belgilangan muayyan ijtimoiy holatlar yuzaga kelganda, uning insoniy qadr-qimmatini saqlash hamda ijtimoiy farovonligini ta'minlash maqsadida davlat ijtimoiy sug'urtasi yoki byudjet mablag'lari hisobidan, qat'iy huquqiy me'yorlar asosida qaytarib berilmaslik sharti bilan tayinlanadigan va to'lanadigan, ham yordamchi, ham asosiy ijtimoiy ta'minot shakli sifatida namoyon bo'ladigan pul to'lovidir”.

Ijtimoiy nafaqalar tizimini tartibga soluvchi bir necha qonun va qonunosti hujjatlari mavjud, masalan, bular orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 17-fevraldagi PF-74-son, “Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini

⁶ Tursunov Yu. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2012, 154-bet.

⁷ D.Q.Ahmedov, Ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik – T.: TDYU nashriyoti, 2008, 337-bet

⁸ Ziyadullayev, M.D. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik / M.D.Ziyadullayev. – T.: TDYU nashriyoti, 2025, 255-bet

rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmonlari hamda “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylarining moddiy ta‘minotini yaxshilash hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 8-iyundagi PQ-274-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 119-son “Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa va qo‘shimcha to‘lovlarni tayinlash hamda to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash va ushbu sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali davlat xizmati sifatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida” gi qarorlari alohida ahamiyatga ega.

Nafaqalar quyidagi turlarga bo‘lib tasniflanadi:

- 1) To‘lanish manbalariga ko‘ra:
 - a) davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘laridan (budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi) to‘lanadigan nafaqalar
 - b) davlat budjet mablag‘laridan to‘lanadigan nafaqalar
 - c) boshqa manbalardan to‘lanadigan nafaqalar
- 2) Davriyligiga ko‘ra:
 - a) muntazam tarzda uzoq muddat davomida to‘lanadigan nafaqalar
 - b) muayyan muddat davomida to‘lanadigan nafaqalar
 - c) bir marta to‘lanadigan nafaqalar
- 3) Nafaqa oluvchilar toifasiga ko‘ra:
 - a) fuqarolarga tayinlanadigan nafaqalar
 - b) oilaga yaxlit ko‘rinishda tayinlanadigan nafaqalar
- 4) Ayrim mezonlarga ko‘ra:
 - a) korxonalar va tashkilotlar xodimlariga to‘lanadigan nafaqalar
 - b) bolalarga to‘lanadigan nafaqalar
 - c) nogironlarga to‘lanadigan nafaqalar
 - d) yolg‘iz qariyalarga to‘lanadigan va boshqa turdagi nafaqalar

Umuman olganda O‘zbekiston Respublikasida yoshga doir nafaqa, nogironlik nafaqasi, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi, nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqasi, parvarishlash nafaqasi, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi, bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa, qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqa, dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa, ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to‘lash, tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta‘minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash, kam ta‘minlangan oilalarga ko‘rsatiladigan moddiy yordam kabi bir necha asosiy turlarga bo‘linadi. Bundan tashqari nafaqalarning umumiy standartlari bir necha

konferensiyalarda ham belgilab o'tilgan. Misol qilib aytganda, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 102-sonli “Ijtimoiy ta'minot to'g'risida”gi konvensiyasida tibbiy yordam uchun beriladigan nafaqalar, kasallik nafaqalari, ishsizlik nafaqasi, mehnatda mayib bo'lish nafaqalari, homiladorlik va tug'ish nafaqasi, nogironlik nafaqasi, qariyalar uchun beriladigan nafaqalar, boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi, bolalar nafaqasi kabi nafaqalarning 9 ta turlari keltirib o'tilgani butun unga a'zo davlatlar uchun standart vazifasini o'tab kelmoqda. Bundan tashqari nafaqalarning turlari belgilab o'tilgan yana bir asosiy konvensiya bu Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 1962-yilda qabul qilingan “Fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ijtimoiy ta'minot borasida teng huquqliligi”gi 118-sonli konvensiyasi hisoblanib, unda nafaqa deganda barcha turdagi to'lovlar jumladan, pensiyalar, ustamalar, qo'shimcha pul ko'rinishidagi moddiy yordamlar tushunilishi belgilab o'tilganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy nafaqalar instituti faqatgina davlatning iqtisodiy yordam vositasi emas, balki jamiyatda ijtimoiy adolat hamda huquqiy kafolatlarni ta'minlovchi eng muhim yuridik mexanizmdir. Ijtimoiy nafaqalar huquqi nazariy jihatdan insonning konstitutsiyaviy huquqlariga asoslanadi va amaliyotda iqtisodiy imkoniyatlar tamoyillariga bo'ysunadi. Xususan, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” kabi raqamli tizimlarning joriy etilishi nafaqalarni tayinlashda inson omilini kamaytirib, ehtiyojmand qatlamni aniq belgilash imkonini bermoqda. Bu huquqiy normalarning amaliyotda qanchalik to'g'ri ishlashini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyaning konstitutsiyaviy va huquqiy mustahkamlanishi, “Inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga asoslanib, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini uch baravardan ortiqqa oshirgan holda, inson qadrini jamiyatdagi barcha islohotlarning markaziga qo'yishga qaratilgan. O'zbekistonda shaxslar uchun yaratilgan shart-sharoitlar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida qurilgan bo'lib, har bir fuqaroning munosib yashashi, ijtimoiy adolatdan foydalanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun huquqiy va amaliy kafolatlar yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy ta'minot, jumladan ijtimoiy nafaqalar tizimi orqali endi hech bir fuqaro o'z muammosi bilan yolg'iz qolmaydigan, har bir ehtiyojmand shaxsga davlat tomonidan kafolatlangan yordam va g'amxo'rlik ko'rsatiladigan adolatli jamiyat qurish maqsad qilingan.

Ijtimoiy davlat qurishni davlatimiz o'zining eng ustuvor maqsadlari qatoriga qo'shar ekan, aytish joizki, bu ushbu institutni tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarini umumiy bir normativ-huquqiy hujjatga jamlashni taqozo etadi. Hozirgi kunda hamma nafaqalar har xil qonun hujjatlari bilan tartibga solinyabti, masalan, homiladorlik va tug'ish nafaqasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tizimini

takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 796-sonli qarori bilan tartibga solinsa, nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqasi, parvarishlash nafaqasi, nogironlik nafaqasi, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi, yoshga doir nafaqalar esa Vazirlar Mahkamasining 119-sonli qarori bilan tartibga solinadi. Qolgan boshqa nafaqa turlari ham xuddi shu kabi tarqoq qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari, barcha nafaqalar tayinlashni bir tizimga joylashtirib kodifikatsiyalash uning huquqiy maqomini muhimlik darajasini oshiradi. Chunki “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning iyerarxiyasi belgilan o‘tilgan agar bir normative huquqiy hujjat boshqasiga zid kelsa u holda ushbu iyerarxiyada yuqorida turgan normative huquqiy hujjat ustun hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki yagona normativ-huquqiy hujjatga birlashtirilish orqali bu kabi tafovutlarni oldini olishga erishish mumkin bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, “Ijtimoiy himoya” kodeksini ishlab chiqish va nafaqalar va ularni tayinlashga oid barcha hujjatlarni ushbu kodeks tarkibida jamlashtirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprel // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi // 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa va qo‘shimcha to‘lovlarni tayinlash hamda to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash va ushbu sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali davlat xizmati sifatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 119-son qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. – 23.03.2023-y., 09/23/119/0170-son.
4. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 102-sonli “Ijtimoiy ta‘minotning minimal me‘yorlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi (1952-yil 28-iyun) // Xalqaro shartnomalar ma‘lumotlar bazasi.
5. Universal Declaration of Human Rights (1948). Articles 22, 25 // United Nations Official Website.
6. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (1966). Article 9 // OHCHR Official Website
7. Ahmedov D. Q. Ijtimoiy ta‘minot huquqi : darslik / D. Q. Ahmedov. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2008. – 337 b.
8. Tursunov Yu. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta‘minot huquqi: darslik / Yu. Tursunov. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2012. – 154 b.
9. Ziyadullayev M. D. Ijtimoiy ta‘minot huquqi: darslik / M. D. Ziyadullayev. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. – 255 b
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, <https://parliament.gov.uz/articles/478>